

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ROZIQOV BEHZOD BAHROM O'G'LI

**TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahar – 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Economical sciences**

Roziqov Behzod Bahrom O‘g‘li

Tijorat banklarda moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish yo‘llari 3

Розиков Бехзод Бахром угли

Пути развития финансовых услуг в коммерческих банках 29

Rozikov Bekhzod Bakhrom ugli

Ways to develop financial services in commercial banks..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 63

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ROZIQOV BEHZOD BAHROM O'G'LI

**TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahar – 2025 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasidan B2023.4.PhD/Iqt3520 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (tiu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Jumayev Nodir Xosiyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Zunnunova Xulkar Muxtorovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa

Yetakchi tashkilot: G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «14» 06 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.
Tel: +998 95 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning. Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy. Tel: +998 95 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 30 05 kuni tarqatildi.
(2025-yil 17 05 dagi 31 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.Sh. To'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor



A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda har qanday mamlakatning milliy iqtisodiyoti rivojlanishida bank tizimining o'ziga xosligi muhim o'rin egallab keladi va korxonalar va tadbirkorlarni moliyaviy jixatdan qo'llab quvvatlash vazifasini bajaradi. Bank tizimida moliyaviy xizmatlarning samaradorligini oshirish va mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan yangi moliyaviy texnologiyalar va innovatsiyalar juda tez rivojlanmoqda. Tijorat banklari tomonidan moliyaviy xizmatlarni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish va ularning jozibadorligini oshirish bizning davrimizning eng katta qiyinchiliklaridan biridir. Xususan, dunyoning eng yirik moliyaviy muassasalaridan biri bo'lgan "Bank of America" ma'lumotlariga ko'ra, "jami depozitlarning 85,2 foizi raqamli kanallar orqali qabul qilingan, innovatsion texnologiyalar uchun 12 mlrd. dollar mablag' sarflangan, shundan 3,4 mlrd. dollari xodimlarning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltirilgan"¹.

Jahonda tijorat banklar va ilmiy muassasalar tomonidan mijozlarni bank xizmatlariga jalb qilish va ularni ushlab qolish bo'yicha bir qancha izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, raqamli transformatsiya, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), blokcheyn, BigData, va sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalarning bank tizimida joriy etilishi, tijorat banklari oldida yangi imkoniyatlar bilan birga yangi xatar va muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Bank for International Settlements (BIS) tomonidan berilgan tavsiyalar bank tizimida zamonaviy yondashuvlar va mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda tijorat banklarining ommabopligini ta'minlash uchun bank tizimidagi moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish va transformatsiyalash jarayonlarini faollashtirish bo'yicha e'tiborga molik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, "Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan davrda moliyaviy tizimni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish – iqtisodiy taraqqiyotimizning muhim omillaridan biri. Bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, moliyaviy inklyuziyani oshirish va mijozlarga innovatsion yondashuv asosida xizmat ko'rsatish strategik ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda"². Shu sababdan, tijorat banklarida moliyaviy va innovatsion faoliyatning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ 3270-sonli "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi

¹ https://d1io3yog0oux5.cloudfront.net/bankofamerica/files/pages/bankofamerica/db/809/content/BAC_2020_Annual_Report.Pdf.

² Sh.M.Mirziyoyev, "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - B.41.

to'g'risidagi" farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli "O'zbekiston — 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ushbu sohadagi taniqli iqtisodchi olimlar va mutaxassislar mavzuning nazariy, amaliy va uslubiy masalalariga bag'ishlangan ilmiy asarlar yozdilar. Tijorat banklari tomonidan bank xizmatlarini joriy etishning bir qator nazariy va uslubiy jihatlari, shuningdek ularni xalqaro iqtisodchi olimlar Filipp Molinye, Barbara kasu, Klaudiya Jirardone, Alimardan D.Koks, F.Modilliani, D.Pollen, A.Kumar, A.Srivastava va P.K.Gupta³, MDX mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan I.T.Balabanov, E.P.Jarkovskaya, E.F.Jukov, O.I.Lavrushin, V.M.Usoskina, E.B.Shirinskayalarning⁴ ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan bank tizimi vujudga kelishi va rivojlanishiga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar Sh.Z.Abdullaeva, B.T.Berdiyarov, T.I.Bobokulov, A.V.Vaxabov, O.K.Iminov, F.I.Mirzaev, A.A.Omonov, O.A.Ortikov, O.B.Sattarovlar, I.M.Yo'ldoshev, O.F.Aliqoriyev⁵

³ Cox.D Success in elements of banking. – London: John Murray, 1979.- 271p.; Modigliani F., Fabozzi F.J., Ferri M.G. Foundations of financial markets and institutions. – New Jersey 61, 1997. – 498 p.; Palfreman D. Elements of banking. Philip Ford. – 2nd ed.- London: Pitman,1988.-660.; Barbara Casu, Claudia Girardone, Philip Molyneux "Introduction to banking" Pearson Education 2006, pp 25-526.; Kumar, A., Srivastava, A., & Gupta, P.K. (2022). Banking 4.0: The era of artificial intelligence- based fintech. Strategic Change. 31(6), 1-11. DOI: <http://dx.doi.org/10.1002/jsc.2526>.

⁴ Балабанов И.Т. Банки и банковское дело / Под ред. И.Т. Балабанова. - Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 304 с.; Жарковская Е.П. Банковское дело. - Москва: Омега-Л, 2004. - 440 с.; Жуков Е.Ф. Банки и банковские операции / Под ред. Е.Ф. Жукова. - М.: Банки и биржи, 1997. - 191 с.; Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник. / Под ред. О.И. Лаврушина. - 3-е изд. - Москва: Кнорус, 2005. - 766 с.; Усоскин В.М Современный коммерческий банк: управление и операции. - Москва: МКЦ ДИС, 1997. - 464 с.; Ширинская Е.Б. Операции коммерческих банков. - М.: Финансы и статистика, 1993. – 144 с.

⁵ Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - Toshkent: Moliya, 2003. - 312 b.; Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalarining daromadliligi: IKT. fan. nom. ... dis. Avtoref. - Toshkent, 2002. - 20 b.; Bobokulov T.I. Milliy valyuta barkarorligini taminlash: muammolar va echimlar. Monografiya. - Toshkent, 2007. - 183 b.; Вахабов А.В. Укрепление банковской системы Узбекистана как приоритетное направление повышения эффективности антикризисной программы Узбекистана // Эффективность антикризисных программ и приоритеты посткризисного развития: (на примере Узбекистана). - Международная научно- практическая конференция - Ташкент: Узбекистан, 2010. - Часть III. - Б. 84-90; Iminov O.K. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kredit tizimi va uni takomillashtirish yullari: IKT. fan. dok. ... dis. Avtoref. - Toshkent, 2002. - 38 b.; Mirzaev F.I. O'zbekistonda banklararo raqobatni shakllantirishning kontseptual asoslari: IKT. fan. dok. ... dis. Avtoref. - Toshkent, 2009. – 41 b.; Omonov A.A. Tijorat banklari resurslarini samarali boshkarish masalalari: IKT. fan. dok. ... dis. Avtoref. - Toshkent, 2008. - 37 b.; Ortikov O.A. Banklararo rakobat sharoitida bank xizmatlari va ularni takomillashtirish yullari: IKT.fan. nom. ... dis. Avtoref. - Toshkent, 2009. - 19 b.; Sattarov O.B. Tijorat banklari likvidliligini taminlashni takomillashtirish: IKT. fan. nom. ... dis. Avtoref. - Toshkent, 2009. - 18 b.; Yo'ldoshev M.I. Bank huquqi. Darslik/ M.I.Yo'ldoshev. -Toshkent: 2007. -332 b.; Aliqoriyev O.F Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari I.f.n.diss avtoref, 2011 -34b.

tomonidan amalga oshirilishi, ularning ilmiy tadqiqotlari O‘zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida kredit tizimi faoliyatining tashkil etilishi va evolyutsiyasini, tijorat banklarining turli bank operatsiyalari va xizmat ko‘rsatish sohaslarining amaliy xususiyatlarini, banklararo raqobatni va bank xizmatlari bozorining shakllanishini aks ettiradi.

Bugungi kunda yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini joriy etish, takomillashtirish va rivojlantirishning innovatsion jihatlari iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha o‘rganilmagan va yaxlit ilmiy-tadqiqot ishi sifatida keng qamrovli tadqiqot olmagan dolzarb muammo hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarildi va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarini rivojlantirish jarayonini ilmiy-nazariy va amaliy tahlil qilishni, shuningdek, raqamli transformatsiya orqali tijorat banklarda moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan moliyaviy xizmatlar sohasidagi nazariy asoslar va rivojlanayotgan tendensiyalarni o‘rganib chiqish;

tijorat banklarining hozirgi holatini tahlil qilish, ularning moliyaviy texnologiyalar va zamonaviy moliyaviy xizmatlarni joriy etish darajasini baholash;

xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularning O‘zbekiston tijorat banklarining faoliyatiga tadbiq etish imkoniyatlarini aniqlash;

ilg‘or moliyaviy vositalar va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda moliyaviy xizmatlarni diversifikatsiya qilish va inklyuziv moliyaviy tizimni yaratish imkoniyatlarini o‘rganish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa davlat dasturlarining bank-moliya tizimini rivojlantirishdagi o‘rni va istiqbollarni o‘rganish;

O‘zbekiston tijorat banklari uchun moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasini ilgari surish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda tijorat banklarining moliyaviy xizmatlar faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. O‘zbekiston tijorat banklarida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirish jarayonida vujudga keluvchi moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ishida taqqoslash va tahlil qilish, rivojlantirish tendensiyalari baholashi, statistik tahlil usuli, ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, dinamikada o‘rganish, ma’lumotlarni guruhlash, korrelyatsion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarni transformatsiyalash asosida ichki va tashqi turizmni amalga oshiruvchilar uchun imtiyozli kreditlar ajratishda bank mobil ilovasida sayyohlik xizmatlarini shakllantirish taklif etilgan;

tijorat banklari tomonidan mijozlarga ish haqi va boshqa daromadlarini oldindan olish, ushbu daromadlarini masofadan turib boshqarish kabi qulayliklar yaratishda banklar mobil ilovasi orqali xizmatlar bo'limida ish haqi va avans turi bo'limini qo'shish asoslangan;

tijorat banklari tomonidan moliyaviy xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish, bank xizmatlarining ommabopligini oshirishda muhim innovatsion yechim sifatida bank mobil ilovalari orqali plastik karta talab etilmagan holda naqd pul mablag'larini olish imkoniyati taklif etilgan;

bank moliyaviy xizmatlarini transformatsiya qilish orqali talabalar o'rtasida ommabopligini oshirishda naqd pul olish va on-line mahalliy va xalqaro to'lovlarni amalga oshirish kabi imkoniyatlar taqdim etivchi Humo va MasterCard bilan integratsiya qilingan xalqaro talaba identifikatsiya kartasini ishlab chiqish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklarida moliyaviy bank xizmatlarini raqamlashtirish va rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy manbalarni o'rganish asosida "raqamli bank xizmatlari" va "innovatsion bank xizmatlari" tushunchalarining iqtisodiy mohiyati, shuningdek, iqtisodchi olimlar guruhi va muallifning o'zi ta'riflari shakllantirilib ochib berildi;

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tizimida moliyaviy bank xizmatlarining shakllanish bosqichlari va ijtimoiy asoslari ko'rib chiqildi, har bir bosqichning alohida mezonlari ishlab chiqilgan;

tijorat banklari tomonidan aholiga qulayliklar yaratish va bank tizimiga bo'lgan ishonchni yanada mustaxkamlashda tijorat banklarning mobil ilovasi orqali davlat xizmatlaridan foydalanish taklifi etilgan;

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda "mobil bank" ilovalari diversifikatsiya qilinib ishlab chiqilgan;

tijorat banklari tomonidan mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida ish haqi va avans xizmatlarini ko'rsatish tizimini joriy etish to'g'risidagi taklif asoslangan;

tijorat banklarida moliyaviy xizmatlarni bo'yicha mavjud yondashuvlarning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatib berilgan;

har qanday plastik kartaning rasmiy veb-sayti orqali moliyaviy bank xizmatlarini ko'rsatish uchun onlayn rasmiylashtirish tizimi diversifikatsiya qilindi. tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ekspert baholari natijalari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari ma'lumotlari, tijorat banklarining amaliyotga joriy etilishi, olimlarning tijorat banklarida moliya-bank xizmatlari sifatini oshirishga oid ilmiy-nazariy qarashlari taqqoslandi va tanqidiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari statistik ma'lumotlar, amaliy tahlillar va ilmiy asoslangan metodologiyalarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Xususan, O'zbekiston tijorat banklarining real ko'rsatkichlari, Markaziy bank va xalqaro moliyaviy institutlar (IMF, Jahon banki) ma'lumotlari asosida tahlillar o'tkazilgan. Shuningdek, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar

amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda olingan natijalar tijorat banklar tomonidan joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Oliy o'quv yurtlarida «bank ishi», «raqamli bank xizmatlari», «pul muomalasi va banklar», «moliya va moliyaviy texnologiyalar» yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy ta'minotni shakllantirish jarayonida qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston tijorat banklari tomonidan raqamli moliyaviy xizmatlar texnologiyalarini modernizatsiya qilish, diversifikatsiya qilish va joriy etish bo'yicha foydali takliflarni ishlab chiqish uchun foydalanish. Shuningdek, bank tizimining barqarorligini oshirish va moliyaviy xizmatlarning inklyuzivligini kengaytirish bo'yicha davlat organlari va moliya sohasi mutaxassislariga strategik tavsiyalar taqdim etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari moliyaviy xizmatlar faoliyatini rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarni transformatsiyalash asosida ichki va tashqi turizmni amalga oshiruvchilar uchun imtiyozli kreditlar ajratishda bank mobil ilovasida sayyohlik xizmatlarini shakllantirish taklifi AJ Asakabank faoliyatiga joriy etilgan. ("Asakabank" AJ boshqaruvining 2024-yil 21-maydagi №19-01/6052-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Asakabank"ning mobil ilovasi orqali ichki va tashqi turizmni amalga oshiruvchilar uchun imtiyozli kreditlar ajratildi va buning natijasida ushbu ilovadan foydalanuvchilarning soni 22% ko'payishiga erishilgan;

tijorat banklari tomonidan mijozlarga ish haqi va boshqa daromadlarini oldindan olish, ushbu daromadlarini masofadan turib boshqarish kabi qulayliklar yaratishda banklar mobil ilovasi orqali xizmatlar bo'limida ish haqi va avans turi bo'limini qo'shishga doir taklifi AJ Asakabank faoliyatiga joriy etilgan. ("Asakabank" AJ boshqaruvining 2024-yil 21-maydagi №19-01/6052-son ma'lumotnomasi). Natijada, Asakabank mobil ilovasi orqali xizmatlar bo'limida ish haqi va avans turi bo'limlari qo'shish orqali ishchilar ish haqi yoki boshqa daromadlarini oldindan olish, ish haqi va boshqa turdagi avanslarni osonlik bilan boshqarish kabi qulayliklar yaratish asosida ushbu xizmatdan foydalanuvchilar soni 7,2% ko'payishiga erishilgan;

tijorat banklari tomonidan moliyaviy xizmatlar turlarini diversifikatsiya qilish, bank xizmatlarining ommabopligini oshirishda muhim innovatsion yechim sifatida bank mobil ilovalari orqali plastik karta talab etilmagan holda naqd pul mablag'larini olishga doir taklifi ATB Qishloqqurilishbank faoliyatiga joriy etilgan ("Qishloqqurilishbank" ATB boshqaruvining 2023-yil 30-dekabrda №06/43-12-9230-son ma'lumotnomasi). Natijada, tijorat banki tomonidan "QUANT" ilovasi orqali xizmatlar bo'limida naqd pul olish tugmasi qo'shish asosida ATMlarda plastik kartasiz, QR-kodni skaner qilgan holda naqd pul olish xizmatini taklif etgan holda ushbu xizmatdan foydalanuvchilar sonini 5,1% ko'payishiga olib kelgan;

bank moliyaviy xizmatlarini transformatsiya qilish orqali talabalar o'rtasida ommabopligini oshirishda naqd pul olish va on-line mahalliy va xalqaro to'lovlarni amalga oshirish kabi imkoniyatlar taqdim etivchi Humo va MasterCard bilan

integratsiya qilingan xalqaro talaba identifikatsiya kartasini ishlab chiqish taklifi AJ Garant bank faoliyatiga joriy etilgan (“Garant Bank” AJ boshqaruvining 2025-yil 7-yanvardagi №02/12-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalik maqomini tasdiqlovchi yagona xalqaro karta xisoblangan, 130 dan ortiq mamlakatlarda talabalar uchun chegirmalar, bo‘nuslar va imtiyozlar taqdim etadigan, hamda naqd pul olish va onlayn to‘lovlar imkoniyatini yaratadigan barcha talabalari uchun mo‘ljallangan Humo va MasterCard bilan integratsiya qilingan xalqaro talaba identifikatsiya kartasi (ISIC) ishlab chiqilgan, hamda ISIC talabalar kartasini ochish davomiyligi 15-30 minutni tashkil etishi hisobiga bu talabalar kartasi ochilishi 15,2 foizga ko‘payishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan. Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e’tirof etgan jurnallarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalar to‘plamlarida 5 ta ma’ruza va tezislar nashr ettirilgan.

Dissertatsiya tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’yekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobda tijorat banklarining moliyaviy xizmatlari, ularning mohiyati va rivojlanish tendensiyalari nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqildi. Tijorat banklari mamlakat moliyaviy tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, ularning asosiy vazifalari mijozlarga kreditlash, depozit qabul qilish, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish, investitsiya faoliyatini yuritish hamda boshqa moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishdan iborat ekanligi ta’kidlandi. Ushbu xizmatlar nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga, balki aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan samarali foydalanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida banklarning faoliyatiga turli nazariy yondashuvlar tahlil qilindi. Iqtisodiy adabiyotlarda tijorat banklari faoliyatini talqin qilishda turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ayrim olimlar banklarni asosan kredit-moliya muassasalari sifatida ko‘rsatsa, boshqalari ularni kengroq iqtisodiy funksiyalarni bajarayotgan tashkilotlar sifatida baholaydi. Xususan, tijorat banklari nafaqat omonatlarni jalb qiluvchi va kredit beruvchi muassasalar, balki iqtisodiy faollikni

oshiruvchi va jamg'armalarni samarali yo'naltiruvchi vositachilar sifatida ham ko'rib chiqildi.

Shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni alohida tahlil qilindi. Bugungi kunda bank xizmatlari ko'rsatishning raqamlashtirilishi, innovatsion moliyaviy texnologiyalarning joriy etilishi va onlayn bank xizmatlarining rivojlanishi bank tizimining samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biriga aylandi. Bank xizmatlarining mobil ilovalar orqali kengayishi, kontaktsiz to'lov tizimlarining rivojlanishi, blokcheyn texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida bank xizmatlarini avtomatlashtirish jarayonlari tijorat banklarining kelajakdagi ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Moliyaviy inklyuziyani oshirish bo'yicha tijorat banklarining roli muhim masalalardan biri sifatida ko'rib chiqildi. Xususan, aholining keng qatlamlariga moliyaviy xizmatlarni yetkazish, jumladan, kam daromadli qatlamlar va kichik biznes subyektlari uchun qulay moliyaviy vositalarni taqdim etish orqali banklar jamiyatdagi iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarni innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirishi va raqamli bank xizmatlari ekotizimini kengaytirishi zarurligi ta'kidlandi.

Xulosa o'rnida, tijorat banklari moliyaviy xizmatlar bozorida yetakchi o'rin egallashi uchun ularning zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etishi, mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar spektrini kengaytirishi va biznes jarayonlarini raqamli transformatsiya asosida takomillashtirishi lozimligi asoslandi. Shu bilan birga, bank tizimining barqarorligi va ishonchliligini oshirish uchun huquqiy-me'yoriy bazani mustahkamlash, regulyator siyosatini takomillashtirish va xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish muhim ekanligi ta'kidlandi.

Aktiv va passivlarni boshqarish (ALM) tijorat bankning barqarorligi va rentabelligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon bankning likvidlik, protsent stavkalari, valyuta va kredit risklari, investitsion faoliyat va kapitalni boshqarishni o'z ichiga oladi. Likvidlikni samarali boshqarish bankning mijozlar va kontragentlar oldida o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ta'minlaydi. V.V.Kovalyov ta'kidlaganidek, "likvidlikni samarali boshqarish inqiroz holatlarining ehtimolini kamaytiradi va mijozlar ishonchini mustahkamlaydi".

Shu bilan, aktiv va passivlarni boshqarish tijorat banklariga moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Tijorat bankning kredit siyosati bankning moliyaviy strategiyasining muhim elementlaridan biri bo'lib, kredit riskini boshqarish va qarzlarni mablag'larining qaytarilishini ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayon kreditlash shartlarini shakllantirish, qarz oluvchilarning kredit qobiliyatini tahlil qilish, kreditlash limitlarini aniqlash, kredit portfelini monitoring qilish, kredit risklarini aniqlash, xodimlarni o'qitish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan, tijorat bankning kredit siyosati kreditlash shartlarini ishlab chiqish, qarz oluvchilarni baholash, limitlar o'rnatish, kredit portfelini nazorat qilish,

risklarni xedjlash, xodimlarni o‘qitish va texnologiyalarni qo‘llash kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Samarali kredit siyosati risklarni minimallashtirish, mablag‘larning qaytarilishini ta‘minlash va bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi.

Investitsiyalarni diversifikatsiya qilish xatarlarni kamaytirishga qaratilgan. Bank o‘z investitsiyasini turli aktiv turlari va iqtisodiyot sektorlari o‘rtasida taqsimlaydi. V.V.Kovalyovning ta‘kidlashicha, “bu yondashuv salbiy omillarning umumiy portfelga ta‘sirini kamaytirishga yordam beradi va daromadlar barqarorligini ta‘minlaydi”. Investitsiya portfelining holatini muntazam nazorat qilish bankka muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va strategiyani to‘g‘rilash imkonini beradi. L.N.Pavlova ta‘kidlashicha, ushbu choralar natijadorlikni yaxshilash va xatarlarni kamaytirishga yordam beradi.

Tijorat banking moliyaviy faoliyatining muhim elementi, uning moliyaviy barqarorligini va raqobatdoshligini kuchaytirishga qaratilgan. Bu jarayon kapital strukturasi optimallashtirish, kapitalning yetarli darajasini ta‘minlash, qo‘shimcha resurslar jalb etish, kapital xatarlarini boshqarish, kapitalga sarmoya qilish, informatsion texnologiyalarni joriy etish va xodimlarning malakasini oshirishni o‘z ichiga oladi.


Dissertatsiyaning **“Tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishning amaldagi holati taxlili va asosiy yo‘nalishlari”** nomli ikkinchi bobda O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishning amaldagi holati va asosiy yo‘nalishlari tahlil qilindi. O‘zbekistonda bank sektori raqamli transformatsiya jarayoniga bosqichma-bosqich o‘tib, an‘anaviy bank xizmatlaridan raqamli bank xizmatlariga o‘tish tendensiyasi kuchayib bormoqda.

Jismoniy shaxslarning omonatlari 2020-yilda 329,9 milliard so‘m bo‘lsa, 2024-yilda 1,3 trillion so‘mga yetgan. Bu esa jismoniy shaxslarning omonatlari 4 baravarga yaqin o‘sganini ko‘rsatadi. Bu natija bank tizimining aholiga taklif etayotgan depozit mahsulotlari, raqamli xizmatlarning rivojlanishi va moliyaviy savodxonlik oshayotganining ijobiy ko‘rinishidir.

Yuridik shaxslar tomonidan qo‘yilgan omonatlar esa 2020-yilda 1,9 trillion so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 4,3 trillion so‘mga yetgan. Bu esa omonatlarning 2,25 baravarga oshganini anglatadi. Shunga qaramay, yuridik shaxslar omonatlarining o‘shirish sur‘ati jismoniy shaxslarga qaraganda pastroq bo‘lib, bu sohaga yanada ko‘proq e‘tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

2023-yilda bank omonatlarining 50% umumiy jamg‘arma sifatida, 39% yuridik shaxslar tomonidan va 11% jismoniy shaxslar tomonidan shakllantirilgan. 2024-yilda esa jismoniy shaxslar omonatlarining ulushi ortgan bo‘lib, aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotganini anglatadi.

Bank omonatlarining o‘shirish sur‘ati barqaror bo‘lib, har yili o‘rtacha 15–25% ni tashkil qilmoqda. Agar ushbu tendensiya davom etsa, 2026-yilgacha jami omonatlar hajmi 9 trillion so‘mga yetishi mumkin. Bu esa bank tizimi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.



Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar (mlrd.so'm)

Omonat	2024	2023	2022	2021	2020
Jismoniy shaxs	1306079	989269	671363	526265	329887
Yurudik shaxs	4301142	3492424	3067361	2764834	1908710
Jami	5607221	4481692	3738724	3291099	2238597


1-rasm. Tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar⁶.

Kelgusida bank tizimida omonatlar hajmini yanada oshirish uchun yuridik shaxslar uchun depozit shartlarini yanada jozibador qilish, uzoq muddatli omonatlar bo'yicha daromadlilikni oshirish va bank xizmatlarini yanada raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, aholi va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish talab etiladi.

2024-yilgi moliyaviy natijalar bo'yicha O'zbekiston tijorat banklarining umumiy daromadi 12 380 milliard so'mdan 6 965,8 milliard so'mga kamaygan, ya'ni umumiy daromad taxminan 43,7% ga qisqargan. Bu bank sektorida islohotlar jarayonining davom etayotgani va ayrim tijorat banklari uchun murakkab moliyaviy sharoit yuzaga kelganini ko'rsatadi.

Banklar o'rtasidagi raqobatning sezilarli darajada kuchayishi milliy valyutadagi muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalarida o'z aksini topdi. Xususan, 2024 yil aprel oyida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 21,3% ni tashkil etgan bo'lsa, yuridik shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha bu ko'rsatkich 18,5% gacha ko'tarildi. Depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining jozibadorligi oshishi va depozit sertifikatlari miqdorining oshishi natijasida bank tizimida jami bank xizmatlarining mashhurligi mijozlarga o'z hisobvaraqlarini yuritish, to'lovlarni tez amalga oshirish va bank hisobvaraqlari bo'yicha hisobotlarni tuzish imkonini beradi. Bundan tashqari, bank mijozlari o'z mablag'larini depozitlarga joylashtirish yoki kechayu kunduz mobil telefonlar orqali masofadan turib kredit olish uchun ariza berish imkoniyatiga ega.

⁶ <https://cbu.uz/uz/statistics/buletin/594513/> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



2-rasm. Tijorat banklarining omonatlari⁷.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish orqali aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Xorijiy tajribalardan AQSh, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy xizmatlar bo‘yicha ilg‘or tajribalari tahlil qilinadi hamda ularni O‘zbekiston tijorat banklari faoliyatiga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Mamlakatimizning barcha moliyaviy aktivlarining 69% davlat ishtirokidagi banklarda saqlanmoqda. Davlat tijorat banklari kapitalining 67% egalik qiladi. Qolgan 65% kreditlar davlat mablag‘lari hisobidan berildi va kredit depozitlarining atigi 35% davlat ishtirokidagi banklarga berildi. Bunday sharoitda xususiy banklar davlat ishtirokidagi banklarga qaraganda 3,5-4 baravar foydaliroqdir.

O‘zbekistonda Milliy bank, Xalq bank, Agrobank va Asaka bank davlat tasarrufidagi asosiy banklar hisoblanadi. Ushbu banklardan Agrobank (-90,8%) va Asaka bank (-72,4%) katta zarar ko‘rgan, bu esa ularning samaradorligini oshirish yoki xususiy sektorga o‘tkazish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Xalq bank (+8,1%) va Milliy bank (+0,3%) barqaror o‘sinhga erishgan, bu esa davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan banklarning nisbatan yaxshiroq holatda ekanini ko‘rsatmoqda.

⁷ <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/1675152/> asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**Tijorat banklarining moliyaviy natijalari samaradorlik ko'rsatkichlari
(mlrd.so'm)⁸.**

Tijorat banklari	2022 yil	2023 yil	2024 yil	farqi (%)
O'zmilliybank	2409,6	1716,5	1722,2	0,33%
O'zsanoatqurilishbank	588,9	911,7	1303,2	42,94%
Agrobank	609,2	750,9	69	-90,81%
Mikrokreditbank	21,3	41,1	-1703,8	-4245,50%
Xalq bank	7,9	248,5	268,5	8,05%
Garant bank	7,5	1,3	-64,3	-5046,15%
«BRB» ATB	437,5	236	-2231,1	-1045,38%
Turonbank	52,9	57,9	23,2	-59,93%
Hamkorbank	735,4	1200,2	1426,6	18,86%
Asakabank	73,2	150,6	41,6	-72,38%
Ipak Yo'li bank	470,4	740,1	910,5	23,02%
Ziraat Bank Uzbekistan	75,2	60	79,5	32,50%
Trastbank	605,3	800,3	807,4	0,89%
Aloqabank	228,4	607,7	190	-68,73%
Ipoteka-bank	1156,5	818,9	-240,2	-129,33%
KDB Bank O'zbekiston	212,3	430,4	526,9	22,42%
Eron «Soderot» bank	12,3	16,9	25	47,93%
Universal bank	137,5	95,5	156,1	63,46%
Kapitalbank	1079,9	1629,7	1155,9	-29,07%
Octobank	-8,5	74,7	150,7	101,74%
Davr-bank	219,9	371,4	389,9	4,98%
InFinBank	201,9	250,3	241,7	-3,44%
Asia Alliance bank	202,1	321,4	400,6	24,64%
Orient Finans bank	452,5	608,1	901,1	48,18%
AVO BANK	-18,5	-27,7	-93,3	236,82%
Poytaxt bank	17,4	16,4	15	-8,54%
Tenge Bank	4,7	42,6	36,2	-15,02%
TBC Bank	-116,1	40,2	341	748,26%
ANOR BANK	40,7	139,5	190,3	36,42%

Davlat strategiyasiga ko'ra, faqat 3-4 ta bank davlat ixtiyorida qolishi lozim, qolganlari esa bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazilishi kerak. Ushbu jarayon bank tizimining samaradorligini oshirishga va raqobat muhitini shakllantirishga yordam beradi.

O'zbekiston bank tizimida xorijiy banklar sifatida Ziraat Bank, KDB Bank va Tenge Bank faoliyat yuritmoqda. Ziraat Bank (+32,4%) va KDB Bank (+22,4%) ijobiy o'sish sur'atlariga ega bo'lsa, Tenge Bank (-15,0%) zarar ko'rgan. Bu xorijiy

⁸ <https://bankers.uz/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

banklarning O‘zbekiston moliya bozorida tobora muhim rol o‘ynayotganini va ularning ta’siri ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Ushbu strategiyaga muvofiq kamida to‘rtta yirik xalqaro banklar jalb qilinishi kutilmoqda, bu esa bank sohasida raqobatning kuchayishiga, investitsiyalarning ko‘payishiga va xizmat ko‘rsatish sifatining oshishiga olib keladi.

Raqamli banklar orasida TBC Bank (+748,5%), Uzum Bank (+121,4%) va Anor Bank (+36,4%) katta o‘shishga erishgan. Ayniqsa, TBC Bankning keskin o‘shishi O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlariga bo‘lgan talab ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Hozirda O‘zbekiston hukumati faqat 3-4 ta bankni davlat ixtiyorida qoldirish strategiyasini ilgari surmoqda. Agrobank va Asaka bankning katta yo‘qotishlarga uchrangani ularning xususiylashtirilishi zaruriyatini oshiradi. Ziraat Bank va KDB Bank O‘zbekiston bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

2-jadval

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish bo‘yicha xorijiy tajribasi⁹.

Davlat/ Mintaqa	Asosiy yondashuv	Uning afzalliklari
Janubiy Koreya	Raqamli banklarni rivojlantirish (KakaoBank, K Bank)	Bank filiallariga ehtiyoj kamayadi, xizmatlar arzon va qulay bo‘ladi
Yevropa Ittifoqi	PSD2 (Payment Services Directive 2) direktivasi asosida ochiq bank tizimi	Mijozlar turli bank xizmatlarini tanlash imkoniga ega bo‘ladi, banklar o‘rtasida raqobat kuchayadi
Hindiston	Aadhaar biometrik identifikatsiya tizimi orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish	Katta aholiga tezkor va qulay moliyaviy xizmatlarni taqdim etish
AQSh	Fintex kompaniyalari orqali bank xizmatlariga muqobil tizim yaratish (PayPal, Square, Revolut, Chime)	Tezkor va qulay to‘lov xizmatlari, an’anaviy banklardan mustaqil ravishda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati

Hisobotlar va ma’lumotlarga ko‘ra, bozor tahlilchilari faqat raqamli to‘lovlar sektori 2026 yilga kelib 10,07 trillion dollarga yetishi mumkinligini taxmin qilmoqda.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O‘zbekiston fintech bozorining yanada rivojlanishi uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Ushbu chora-tadbirlar orqali O‘zbekiston fintech bozori Markaziy Osiyoda yetakchi fintech ekotizimiga aylanishi va global moliyaviy texnologiyalar bozori bilan integratsiyalashishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi (YI) moliyaviy xizmatlar sohasida raqobatni oshirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida PSD2 (Payment Services Directive 2) direktivasini qabul qildi. Ushbu direktiva banklar va moliyaviy texnologiya

⁹ Muallif tomonidan tayyorlandi.

kompaniyalari (fintex) o'rtasida ma'lumot almashinuvi uchun huquqiy asos yaratib, ochiq bank (Open Banking) xizmatlarini rivojlantirishga zamin yaratdi.

PSD2 direktivasining asosiy jihatlari:

Ma'lumot almashinuvi: Banklar mijozlarning roziligi bilan ularning hisobvaraqlari haqidagi ma'lumotlarni uchinchi tomon to'lov xizmatlari provayderlari bilan ulashishi lozim. Bu fintex kompaniyalariga yangi moliyaviy xizmatlarni taklif etish imkonini beradi.

Raqobatni oshirish: An'anaviy banklar bilan bir qatorda fintex kompaniyalari ham moliyaviy xizmatlar ko'rsatish huquqiga ega bo'lib, bu esa raqobatni kuchaytiradi va mijozlar uchun xizmat sifatini yaxshilaydi.

Xavfsizlik talablari: PSD2 kuchli autentifikatsiya va ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qat'iy talablarni joriy etadi, bu esa mijozlarning ma'lumotlarini xavfsiz saqlashga xizmat qiladi.


Ochiq bank xizmatlari orqali mijozlar turli bank va fintex platformalari orqali o'z moliyaviy ma'lumotlarini boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa moliyaviy xizmatlarning qulayligi va samaradorligini oshirdi.

Yevropa Ittifoqining PSD2 direktivasi va ochiq bank xizmatlari tajribasi O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va moliyaviy texnologiyalarga bo'lgan talabning oshishi bilan birga, ochiq bank xizmatlarini joriy etish orqali moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, raqobatni kuchaytirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish mumkin. Buning uchun xalqaro tajribani o'rganish va milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Janubiy Koreya moliyaviy texnologiyalar sohasida yetakchi davlatlardan biri bo'lib, raqamli banklar va mobil banking xizmatlarini jadal rivojlantirmoqda. Mamlakatda yuqori texnologik infratuzilma va keng tarqalgan internet qamrovi tufayli raqamli moliyaviy xizmatlar aholining kundalik hayotida muhim o'rin tutadi.

Janubiy Koreyada birinchi litsenziyalangan raqamli banklar 2017-yilda ish boshlagan. Masalan, KakaoBank va K Bank kabi raqamli banklar an'anaviy filiallarsiz, to'liq onlayn xizmat ko'rsatib, mijozlarga 24/7 rejimida bank xizmatlarini taqdim etmoqda. Ushbu banklar mobil ilovalar orqali hisob ochish, kredit olish, to'lovlarni amalga oshirish kabi xizmatlarni soddalashtirib, mijozlarga qulaylik yaratmoqda.

Janubiy Koreyada mobil banking xizmatlari keng tarqalgan bo'lib, aholining katta qismi moliyaviy operatsiyalarni smartfonlari orqali amalga oshiradi. Bu jarayonda yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari va zamonaviy texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Mobil banking ilovalari orqali foydalanuvchilar hisoblarini boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish, investitsiya qilish va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega.



3-rasm. Janubiy Koreyada eng ko‘p foydalanilgan mobil bank ilovalari (million foydalanuvchilarda)¹⁰.

Rasmga ko‘ra, 2024-yil yanvar holatiga Janubiy Koreyada eng ko‘p foydalanuvchilarga ega mobil bank ilovalari qatoriga Toss (19.86 million) va Kakao Bank (16.5 million) kiradi. Ushbu ikkita platforma mamlakatda raqamli banking xizmatlarining eng mashhur turlari bo‘lib, foydalanuvchilar soni bo‘yicha sezilarli ustunlikka ega. KB Star Banking (12.16 million), Shinhan SOL (8.14 million) va Woori WON Banking (7.37 million) ham raqobatbardosh bank ilovalari hisoblanadi. Umuman olganda, raqamli bank va mobil banking xizmatlarining ommaviyligi Janubiy Koreyada yuqori bo‘lib, mijozlar qulay, tezkor va innovatsion moliyaviy yechimlardan keng foydalanmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan bozorlarga ham raqamli bank xizmatlarini kengaytirishda foydali tajriba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Janubiy Koreyaning raqamli banklar va mobil banking sohasidagi tajribasi O‘zbekiston uchun qimmatli bo‘lishi mumkin. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyaviy xizmatlarni ommabop qilish maqsadida Janubiy Koreya tajribasidan foydalanish, xususan, raqamli banklarni joriy etish va mobil banking xizmatlarini kengaytirish orqali aholiga qulay va tezkor moliyaviy xizmatlar taqdim etish mumkin.

Hindiston moliyaviy inklyuziyani oshirish maqsadida Aadhaar deb nomlangan biometrik identifikatsiya tizimini joriy etdi. Ushbu tizim har bir fuqaroga 12 xonali yagona identifikatsiya raqamini berib, ularning biometrik va demografik

¹⁰ <https://www.statista.com/statistics/1229271/south-korea-leading-online-banking-apps-by-users/>.

ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Aadhaar tizimining asosiy jihatlari:

Biometrik identifikatsiya: Fuqarolarning barmoq izlari va ko'z qorachig'i skanerlari orqali ularning yagona identifikatsiyasi ta'minlanadi.

Moliyaviy xizmatlarga kirish: Aadhaar raqami orqali bank hisobvaraqlarini ochish, to'lovlarni amalga oshirish va boshqa moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Davlat xizmatlari integratsiyasi: Aadhaar tizimi davlat tomonidan taqdim etiladigan turli xizmatlar va subsidiyalarni olishda ham qo'llaniladi.

Moliyaviy inklyuziyaga ta'siri:

Aadhaar tizimi orqali Hindistonda millionlab odamlar bank xizmatlariga kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu, ayniqsa, ilgari moliyaviy xizmatlardan foydalanmagan yoki ularga cheklangan kirish imkoniyatiga ega bo'lgan aholi qatlamlari uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Aadhaar raqami yordamida bank hisobvaraqlarini ochish jarayoni soddalashtirdi va tezlashdi, bu esa moliyaviy inklyuziyaning oshishiga olib keldi.

Hindistonning Aadhaar tizimi tajribasi O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Mamlakatimizda raqamli identifikatsiya tizimlarini joriy etish orqali moliyaviy xizmatlarga kirishni kengaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish mumkin. Bu borada Aadhaar tizimining muvaffaqiyatli tajribasidan o'rganish va milliy sharoitga moslashtirilgan raqamli identifikatsiya tizimini yaratish muhimdir.

Demak shuni xulosa qilishimiz mumkin ekanki, O'zbekiston tijorat banklari uchun tavsiyalar:

1. **Fintech bilan hamkorlik qilish:** Tijorat banklari yangi startaplar va fintex kompaniyalari bilan hamkorlik qilish orqali innovatsion moliyaviy xizmatlarni taklif etishi zarur.

2. **Ochiq bank tizimini rivojlantirish:** Bank mijozlariga uchinchi tomon to'lov xizmatlari orqali tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatini berish kerak.

3. **Raqamli banklarni rivojlantirish:** Bank filiallarining o'rniga mobil banking xizmatlarini kengaytirish orqali xizmatlarni tezlashtirish va narxlarni pasaytirish mumkin.

4. **Biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy etish:** Yagona raqamli identifikatsiya tizimi orqali bank xizmatlarini olish jarayonini soddalashtirish lozim.

5. **Kichik biznes va aholi uchun maxsus kredit va omonat mahsulotlarini ishlab chiqish:** Kam daromadli va bank xizmatlaridan foydalanmagan qatlamlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish kerak.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, fintex bilan integratsiya, raqamli banklarni rivojlantirish va ochiq bank tizimini yo'lga qo'yish moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun tijorat banklari innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlarini kengaytirishi zarur.

Tijorat banklarining raqamli moliyaviy xizmatlarini joriy etish jarayoni, texnologik innovatsiyalar va global tajriba bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari

muhokama qilindi. Banking 4.0 konsepsiyasi asosida banklarning faoliyatida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), blokcheyn, bulutli texnologiyalar, IoT (Narsalar interneti) kabi ilg'or texnologiyalar joriy etilayotgani ta'kidlandi. Ushbu texnologiyalar bank xizmatlarining samaradorligini oshirish, mijozlarga yanada qulay imkoniyatlar yaratish va bank tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bank tizimidagi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi mijozlarga yanada qulay xizmat ko'rsatish imkonini bermiqda. Mobil banking, raqamli to'lov tizimlari va masofaviy bank xizmatlarining ommalashishi bank xizmatlarining ommabopligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, mobil ilovalar orqali kredit olish, depozit joylashtirish va tranzaksiyalarni amalga oshirish imkoniyatlarining kengayishi mijozlar uchun bank xizmatlaridan foydalanish jarayonini tez va osonlashtirmoqda.

Shuningdek, "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida tijorat banklarining isloh qilinishi va moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish jarayonlari ham yoritildi. Davlat ulushiga ega banklarni xususiylashtirish, bank tizimiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro standartlarga moslashish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bank sektorining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston tijorat banklarining xalqaro tajribalarni o'rganish va tatbiq etish istiqbollari ham muhokama qilindi. AQSh, Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya va Hindiston tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekiston bank sektorining rivojlanishi uchun muhim yo'nalishlar belgilandi. Masalan, AQSh fintech kompaniyalari orqali bank xizmatlarini muqobil shakllarda taqdim etish, Yevropa Ittifoqida ochiq bank (Open Banking) tizimini joriy qilish, Janubiy Koreyada raqamli banklarni rivojlantirish va Hindistonda biometrik identifikatsiya tizimi orqali moliyaviy inklyuziyani oshirish kabi yondashuvlardan foydalanish O'zbekiston uchun ham dolzarb masalalar sifatida qaraldi.

Jahon iqtisodiyotining globallasuvi sharoitida bank tizimida yuzaga kelgan likvidlilik va kapitalning yetarlilik muammosi, dunyodagi ko'pchilik mamlakatlar banklarida kapitalni jalb etish va yetarli hajmda ushlab turish bilan bog'liq muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Bank boshqaruvchilari uchun "kapital" termini alohida ahamiyatga ega. U asosan, bank aksiyadori tomonidan qo'yilgan hamda aksiyador kapital, zahira va taqsimlanmagan foyda ko'rinishida aks etadigan mablag'lardan iborat bo'ladi.

Banklarda kapital bir-qancha muhim funksiyalarini bajaradi, xususan: yangi bank faoliyatini boshlash uchun resurs bilan ta'minlash, o'sish va kengayishi uchun asos yaratish, bankni risklardan himoya qilish, shuningdek, jamiyatining bank boshqaruvi va aksiyadorlariga bo'lgan ishonchini ta'minlash kabilar kiradi.

Tartibga soluvchi institutlar institutsional riskni pasaytirish maqsadida, moliyaviy bozorlardagi kreditlar va boshqa riskli aktivlar taxminan bank kapitali darajasida bo'lishini talab qiladilar. Agar, bank o'z kreditlari va depozitlarini juda tez kengaytiradigan bo'lsa, unda u bozorlardan va tartibga soluvchi instansiyalardan, yoki o'sishini sekinlashtirish, yoki qo'shimcha kapital jalb qilish zarurligi to'g'risida signal ola boshlaydi. Tegishli institutlar tomonidan kapitalni holatini tartibga

solinishi, bank faoliyatida yuzaga keladigan risklar darajasini chegaralashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu yo‘l bilan, bank tizimi mijozlar ishonchini qozonadi, hamda yirik depozitlarni davlat tomonidan sug‘urtalash tizimini himoya qiladi. Tabiiyki, xalqaro darajada moliyaviy globallashtirishning kuchayishi, kapital bozorlardagi raqobatning ortishi bilan, banklarda aksiyador kapitalni boshqarish orqali korporativ boshqaruvni takomillashtirishga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirmoqda.

